IJTIMOIY VA RAQAMLI MUHITNING KORRUPSIOGEN HOLATLAR SHAKLLANISHIGA TA’SIRI VA UNI BARTARAF ETISHNING HUQUQIY-MA’RIFIY MEXANIZMLARI

Suyunova Barchinoy Shuhrat qizi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Korupsiyaga qarshi kurashish “ yo‘nalishi magistranti
Barchinoysuyunova998@gmail.com *Tel: (33)932 21 05*
https://doi.org/10.5281/zenodo.23523258

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy muhitning korrupsiogen holatlar shakllanishiga ta’siri, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishning huquqiy va institutsional mexanizmlari tahlil qilingan. O‘zbekistonda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijtimoiy muhitdagi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar – huquqiy madaniyatning yetishmasligi, ijtimoiy bag‘rikenglik, shaxsiy munosabatlarning rasmiy tartibdan ustunligi va jamoatchilik nazoratining zaifligi bilan bog‘liq holda tizimlashtirilgan. Korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, daromadlarni deklaratsiya qilish va samaradorlikni reyting asosida baholash mexanizmlarining profilaktik salohiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan huquqiy, institutsional va ma’rifiy choralarning uyg‘un tizimi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya, korrupsiogen omil, ijtimoiy muhit, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, manfaatlar to‘qnashuvi, jamoatchilik nazorati, halollik standartlari, profilaktika.*

Korrupsiya faqat ayrim mansabdor shaxslarning xatti-harakati emas, balki muayyan ijtimoiy muhitda shakllanadigan va qayta ishlab chiqariladigan ijtimoiy hodisadir. Agar jamiyatda pora berish «muammoni tez hal qilish usuli» sifatida qabul qilinsa, «tanish-bilish» rasmiy tartibdan ustun tursa, fuqaro o‘z huquqini bilmasa va himoya qila olmasa, eng mukammal qonun ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligi ko‘p jihatdan ijtimoiy muhitning holatiga, jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liq.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda korrupsiya ko‘lamini keskin qisqartirish va unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish, daromad va mol-mulkni deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich yaratish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashda ochiqlikni ta’minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar korrupsiyaga qarshi kurashning jazolovchi modeldan profilaktik, ya’ni korrupsiyani keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan modelga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi ijtimoiy muhitning korrupsiogen holatlar shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan milliy huquqiy-institutsional mexanizmlarning profilaktik salohiyatini baholashdan iborat. Tadqiqotning yangiligi shundaki, milliy korrupsiyaga qarshi mexanizmlar alohida hujjatlar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy muhitdagi aniq korrupsiogen omillarga javob beruvchi yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi.

Korrupsiyaning institutsional tabiatini ochib berishda R.Klitgaardning mashhur formulasi muhim metodologik ahamiyatga ega: korrupsiya monopol vakolat va ixtiyoriy qaror qabul qilish erkinligi ortganda kuchayadi, hisobdorlik esa uni kamaytiradi (C = M + D – A) [4]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishi mansabdor shaxsning monopol holatini cheklash, qaror qabul qilishdagi sub’yektivlikni kamaytirish va hisobdorlikni kuchaytirishdan iborat.

S.Rouz-Akkerman va B.Palifka korrupsiyani iqtisodiy rag‘batlar, institutlar sifati va madaniy-ijtimoiy me’yorlar kesishmasida tahlil qilib, ijtimoiy me’yorlar korrupsiyani «odatiy holat» sifatida qabul qilgan jamiyatda faqat jazo choralari yetarli emasligini asoslaydi [5]. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi ham profilaktika siyosatini, jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashdagi faol ishtirokini (13-modda) va korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilishni (33-modda) davlatlarning muhim majburiyatlari sifatida belgilaydi [3].

Milliy qonunchilikda ushbu yondashuvlar O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunida [1] va Prezidentning 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmonida [2] o‘z aksini topgan. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, tizimli-strukturaviy tahlil va institutsional yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil ijtimoiy muhitda korrupsiogen holatlarni yuzaga keltiruvchi to‘rtta asosiy omilni ajratish imkonini berdi.

Birinchi omil – huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarli emasligi. O‘z huquqini bilmagan fuqaro mansabdor shaxsning noqonuniy talabiga oson bo‘ysunadi. Shu bois Prezidentning 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni bilan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi» tasdiqlangan. Konsepsiyada yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini bolalikdan singdirish, davlat xizmatchilarida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, har bir davlat organida «Huquqiy madaniyat oyligi», «Odob-axloq oyligi» va «Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi» tadbirlarini o‘tkazish vazifalari belgilangan. Bu choralar korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni uning ildizi – inson ongi darajasida bartaraf etishga qaratilgan.

Ikkinchi omil – korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy bag‘rikenglik va «jimlik madaniyati». Jamiyatda korrupsiya haqida xabar berish ko‘pincha «chaqimchilik» deb qabul qilinadi, bu esa korrupsionerga himoya muhitini yaratadi. Ushbu

muammoni hal etish uchun Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son qarori bilan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Nizomga ko‘ra, bunday shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan 25 baravarigacha bir martalik pul mukofoti bilan, pora yoki zarar summasi bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan oshgan hollarda esa mulk qiymatining muayyan foizi miqdorida rag‘batlantiriladi. Xorijiy tajriba (AQSH, Buyuk Britaniya, Koreya, Qozog‘iston va boshqa davlatlar) bunday mexanizmlar fuqarolarning faolligini oshirishini va korrupsiyaga oid jinoyatlar sonining qisqarishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan, bu mexanizmning asosiy qiymati pul mukofotida emas, balki korrupsiya haqida xabar berishni fuqarolik burchi sifatida qayta baholashdadir.

Uchinchi omil – shaxsiy munosabatlarning rasmiy tartibdan ustunligi va manfaatlar to‘qnashuvi. Qarindoshlik va yaqinlik munosabatlari kuchli bo‘lgan jamiyatda mansabdor shaxsning xizmat burchi va shaxsiy manfaati osongina to‘qnashadi. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan davlat xizmatchilarining odob-axloq namunaviy qoidalarida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik prinsipi belgilangan. PF-6257-son Farmon esa bu yo‘nalishni yangi bosqichga ko‘tardi: barcha davlat organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarini joriy etish, «Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonunni ishlab chiqish, davlat xizmatchilari va ularning oila a’zolari daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish, davlat organlariga ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida o‘tkazish vazifalari belgilandi [2].

To‘rtinchi omil – jamoatchilik nazorati va institutsional hisobdorlikning zaifligi. Prezidentning 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni va PQ-4761-son qarori asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlik davlat organlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikdagi faoliyatini ta’minlovchi maxsus vakolatli organ bo‘lib, qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida ishlaydi. 2021-yil 18-noyabrdagi qonun bilan Agentlik har yili korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzani tayyorlab, parlamentga taqdim etishi belgilandi. Prezidentning 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori bilan esa davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini besh yo‘nalish – huquqiy asoslar, korrupsiyaviy xavflarni baholash, rahbarlarning murosasiz munosabati, xodimlarning xabardorligi va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha reyting asosida baholash tizimi joriy etildi.

Ushbu omillar o‘zaro bog‘liq holda «korrupsiyaviy aylana»ni hosil qiladi: fuqaro boshqalar ham pora beradi deb o‘ylagani uchun o‘zi ham pora beradi, bu esa korrupsiyani ijtimoiy me’yor sifatida yanada mustahkamlaydi. Mazkur aylanani

uzish uchun huquqiy choralar korrupsiyaviy xavflarni oldindan kamaytiruvchi tizimli mexanizmlar bilan to‘ldirilmoqda. Xususan, 2019-yil 10-mayda qabul qilingan «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunda korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik maxsus prinsip sifatida mustahkamlangan va sheriklik tartib-taomillari korrupsiyaga sabab bo‘luvchi omillarning oldini olishni ta’minlashi shartligi belgilangan. Taraqqiyot strategiyasida esa korrupsiyaga qarshi kurashga zamonaviy axborot texnologiyalarini, shu jumladan, sun’iy intellektni joriy etish, normativ-huquqiy hujjatlarni «korrupsiyadan xoli qonunchilik» tamoyili asosida ishlab chiqish, aholi va davlat xizmatchilarining bu sohadagi bilimlarini uzluksiz oshirish vazifalari qo‘yilgan. Raqamlashtirish fuqaro va mansabdor shaxs o‘rtasidagi bevosita muloqotni qisqartirib, korrupsiyaviy munosabatlarning moddiy asosini yo‘qotadi.

Tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Ijtimoiy muhitdagi korrupsiogen omillar va ularni bartaraf etish mexanizmlari

Korrupsiogen omil	Ijtimoiy namoyon bo‘lishi	Huquqiy-institutsional mexanizm
Huquqiy ong va madaniyatning yetishmasligi	Fuqaroning o‘z huquqini bilmasligi, noqonuniy talabga bo‘ysunishi	PF-5618: huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi, tematik oyliklar, huquqiy ta’lim
Korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy bag‘rikenglik	«Jimlik madaniyati», xabar berishni qoralash	VM 829-son qarori: xabar beruvchilarni rag‘batlantirish; BMT konvensiyasining 13 va 33-moddalari
Shaxsiy munosabatlarning rasmiy tartibdan ustunligi	Qarindoshlik, «tanish-bilish», manfaatlar to‘qnashuvi	VM 62-son qarori; PF-6257: ichki nazorat, deklaratsiya, ochiq tanlov
Jamoatchilik nazorati va hisobdorlikning zaifligi	Qarorlarning yopiqligi, natija uchun mas’uliyatning susligi	PF-6013, PQ-4761: Agentlik; milliy ma’ruza; PQ-81: reyting baholash

Jadvaldan ko‘rinadiki, milliy huquqiy mexanizmlar R.Klitgaard formulasining uchala tarkibiy qismiga ta’sir ko‘rsatadi: ochiq tanlov va elektron xizmatlar monopol vakolatni cheklaydi, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish qoidalari ixtiyoriy qarorlar doirasini toraytiradi, milliy ma’ruza, reyting va deklaratsiya tizimi esa hisobdorlikni kuchaytiradi. Biroq ijtimoiy muhitning o‘zi o‘zgarmasa, bu mexanizmlar rasmiy hisobotlar darajasida qolib ketishi xavfi mavjud.

O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, ijtimoiy muhit korrupsiogen holatlarning shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib, uning asosiy tarkibiy qismlari huquqiy madaniyat darajasi, korrupsiyaga nisbatan

ijtimoiy bag‘rikenglik, shaxsiy munosabatlarning rasmiy tartibdan ustunligi va jamoatchilik nazoratining holatidan iborat. Ikkinchidan, O‘zbekistonda shakllangan huquqiy-institutsional mexanizmlar ushbu omillarning barchasini qamrab olgan va korrupsiyaga qarshi kurashni profilaktik modelga o‘tkazishga xizmat qilmoqda. Uchinchidan, bu mexanizmlarning samaradorligi ularning ijtimoiy muhitdagi qadriyatlar va me’yorlar bilan qay darajada uyg‘unlashishiga bog‘liq.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ta’lim muassasalarida halollik va akademik halollikka oid mazmunni uzluksiz ta’limning barcha bosqichlariga tizimli singdirish, korrupsiyaga qarshi ma’rifatni bir martalik tadbirlardan muntazam tarbiyaviy jarayonga aylantirish.

2. Korrupsiya haqida xabar beruvchilarni rag‘batlantirish bilan birga ularning shaxsiy himoyasini kafolatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish va bu haqda aholi o‘rtasida maqsadli targ‘ibot olib borish.

3. PQ-81-son qaror asosidagi reyting baholash tizimiga aholining korrupsiyaga munosabatini o‘lchovchi mustaqil ijtimoiy so‘rovlar natijalarini indikator sifatida kiritish.

4. Mahalla instituti va fuqarolik jamiyati tashkilotlari ishtirokida jamoatchilik nazoratining mahalliy darajadagi shakllarini rivojlantirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqiy mexanizm va ijtimoiy muhit bir-birini to‘ldiruvchi ikki omildir: qonun korrupsiyani jazolaydi, sog‘lom ijtimoiy muhit esa uni tug‘dirmaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/3088008
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 2021-yil 6-iyul, PF-6257-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/5495529
3. United Nations Convention against Corruption. – New York: United Nations Office on Drugs and Crime, 2004.
4. Klitgaard R. Controlling Corruption. – Berkeley: University of California Press, 1988.
5. Rose-Ackerman S., Palifka B.J. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016.